

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YULDASHEV ADHAMJON AXADJONOVICHNING

**HUDUD BUDJET RESURSLARINI BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Yuldashev Adhamjon Akhadjonovich Hudud budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirish.....	3
Юлдашев Адхамжон Ахаджонович Совершенствование управления ресурсами регионального бюджета....	29
Yuldashev Adhamjon Akhadjonovich Improving the management of regional budget resources.....	57
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

YULDASHEV ADHAMJON AXADJONOVICHNING

**HUDUD BUDJET RESURSLARINI BOSHQARISHNI
TAKOMILLASHTIRISH
(Namangan viloyati misolida)**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.2.PhD/Iqt 3017 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz). joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Olimjonov Odil Olimovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tursunov Bobir Ortikmirzayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raxmatullayev Botir Abdulxamidovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat texnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, e-mail: niei_info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, e-mail: niei_info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi)

S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida moliyaviy beqarorlikning kuchayishi sharoitida hudud budjet resurslarini samarali boshqarish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Budjet resurslarining oqilona taqsimlanishi mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishga yordam berib, hududiy budjetlarni boshqarish davlat xarajatlarining shaffofligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vosita hisoblanadi. Jumladan, "Yevropa Ittifoqi budjet siyosati tadqiqotining dolzarbligi va ahamiyati shundaki, uning doirasida YeI mamlakatlari hukumatlari soliqlarni yig'adi va davlat budjet mablag'larini sarflaydi. Bu esa barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u YeI iqtisodiyoti raqobatbardoshligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, budjet siyosati milliy iqtisodiyotlarni tuzilmaviy siyosat vositalari orqali qayta shakllantirish yoki kon'yunktur siyosat orqali to'lov qobiliyatiga ega talabni ta'minlash maqsadlariga ega. Budjet siyosatining eng muhim elementi ijtimoiy siyosat bo'lib, u inson resurslarini sifat jihatidan takomillashtirish, shuningdek, sog'liqni saqlash va ta'limni keng ko'lamda moliyalashtirishni nazarda tutadi"¹. Budjet resurslaridan samarali foydalanish infratuzilmani rivojlantirish va investisiya muhitini yaxshilash imkonini beradi. Hudud budjetining barqarorligi mahalliy ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, jahon iqtisodiyotida hududiy budjetlarni boshqarish makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda strategik ahamiyatga ega.

Jahonda moliya-budjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududlardagi budjet resurslarini boshqarish mexanizmining samarali ishlashini ta'minlashga va mahalliy budjetlar imkoniyatlarini yanada oshirishga qaratilmoqda. Lekin, shunga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarda hududlar budjetlari resurslarini boshqarish bugun zamonaviy talablarga javob bera olmayapti. Ayniqsa, MDH mamlakatlarida hududlar budjetlari mablag'larini samarali ishlatish, ularni boshqarishda ilg'or usullardan foydalanish kabi sohalarda kamchiliklar borligi ko'rinmoqda. Xolbuki, hududlarda budjet resurslarini boshqarish moliyaviy resurslarni oqilona ishlatishni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi va soliq munosabatlariga ham jiddiy ta'sir etadi.

Yangi O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hamda aholining farovonligini yuksaltirishda hudud budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirishda "Aholining real daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirish maqsadida hududlarni kopleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirilishini

¹ Болотин Д.В. Тенденции развития региональной бюджетной системы и бюджетной политики европейского союза на современном этапе // Вестник университета № 12, 2018, с. 124-125. - <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-razvitiya-regionalnoy-byudzhethnoy-sistemy-i-byudzhethnoy-politiki-evropeyskogo-soyuza-na-sovremennom-etape>

ta'minlash, markaz budjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, budjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy budjetlar mablag'larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat budjet siyosatining asosiy vazifalari"² belgilangan. Hududlar budjet resurslarini boshqarishda budjet amaliyotiga qo'yilayotgan yangi talablar, mahalliy budjetlarning samarali ijrosini ta'minlash, hududlar moliyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash, ulardagi moliyaviy muammolar yechimi bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning yangi sharoitida hududlar budjetlari resurslarini oqilona shakllantirish va mablag'lardan samarali foydalanish, boshqarishni takomillashtirish zarurligi tadqiqot mavzuining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 13-dekabrda PF-5283-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 7-iyundagi PF-5075-son "Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 14-fevraldagi PQ-128-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida", 2017-yil 7-iyundagi PQ-3042-son "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi 445-son "Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda ushbu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, inovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hududlar budjet resurslarini boshqarish masalalarining nazariy va amaliy muammolari bo'yicha chet ellik va MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan M.T.Balanguver-Koli, A.Richard, G.Adams, T.V.Konovalova, N.A.Kuzmina, A.V.Ulyukayev, N.A.Kuzmina, S.P.Sazonov, A.Busigin, I.O.Voljin, R.Kox, N.D.Ershvili, V.Maslova, N.A.Shirkevich, V.V.Gamukin, D.V.Margasov, O.Yu.Minchenkova,

²Маҳаллий бюджетларни шакллантиришда жойлардаги давлат ҳокимияти органларининг ваколатларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев фармони. Тошкент ш., 2017 йил 7 июнь, ПФ-5075-сон(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужатлари тўплами, 2017й.,24-сон, 488-модда).

Ye.Kochovich, I.G.Britchenko va boshqalar ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan³.

Shuningdek, O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan M.Sharifxo‘jayev, H.Sobirov, Yo.Abdullayev, A.Vaxobov, T.Malikov, O.Olimjonov, N.Haydarov, Sh.Abdullayeva, X.Qobulov, A.Jo‘rayev, S.Djumayev, X.Xamidov, A.Anarkulov, L.Buranova, U.Imanova, S.Ismailova, F.Ollokulova, J.Ergashov, N.Primova va boshqalar ilmiy asarlarida hududlar budget resurslarini boshqarish masalalarini tadqiq etilgan⁴.

Ammo, respublikamiz olimlari tomonidan mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida hududlar budget resurslarini boshqarishni takomillashtirish masalalarining nazariy va amaliy muammolari bo‘yicha alohida mustaqil tadqiqotlar olib borilmagan. Bu mazkur tadqiqot mavzuning tanlanishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning maqsadi hududlar budget resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududlarda budget resurslari shakllanishidagi hozirgi tendensiyalarni aniqlash;
hududlarda budget resurslari boshqarish imkoniyatlarini oshirishni ta’minlashning asosiy manbalari va tamoyillarini ilmiy asoslash;

mamlakatni rivojlantirishning yangi sharoitida hududlarda budget resurslarini boshqarish mexanizmi rolini aniqlash;

mahalliy budget resurslari shakllanishini ta’minlashda moliya va soliq

³Balaguer-C011, M.T, Local government efficiency: determinants and spacial interdependence I M. T. Balaguercon. M. i. L, Marqucz-Ramos, D, Economics. -2019. Richard A. Musgrave. The Theory of Public Finance. -McGraw-Hill, 1959. Pp. 628; Henry C. Adams. The Theory of Public Expenditures (1985), American Economic Association; Key V.O. The lack of budgetary theory. The American Political Science Review, Vol. 34, No. 6 (Dec., 1940), pp. T.V. Коновалова, Н.А. Кузмина Местный бюджет и налоговый льготы // Финансы кредит -2005 №27 с.45-49. А.В. Улюкаев, Проблемы государственной бюджетной политики. Монография М.:Дело 2004г 543с.С.П. Сазонов Монетизация льгот: региональный опыт // Финансы. -2005.-№4. Стр. 7-10, Д.В. Маргасов Совершенствование методов управления бюджетными ресурсами субъекта РФ и муниципальных образований. дис. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Нижний Новгород 2012 г. 177 с.О.Ю. Минченкова, Управление персоналом: система бюджетирования: Учебное пособие.- М.:КНОРУС, 2006 г. 224с. Е.Кочович. Финансовая математика (текст): Теория и практика финансово-банковских расчетов – М: Финансы и статистика. 1994 год 271 стр Бритченко И.Г. Управление финансовыми ресурсами предприятия. Текст лекций. Донецкий государственный университет. - 2005. – с.112.

⁴М.Шарифхўжаев, З.Срождидинова, Н.Туляганова, Бюджетная политика Республикй Ўзбекистан.- Тошкент: ТФИ, 2001йил, 86 бет. Х.Собиров. Молия-кредит механизми ва ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш. Тошкент 1986 йил, 22 бет. Ё.Абдуллаев, З.Срождидинова Н., Усубаев Государственные финансы Республики Узбекистан.-Ташкент ТФИ, 2001.-85 бет. А.Вахобов З. Срождидинова Ўзбекистон Республикаси давлат бюджети. Тошкент: ТМИ, 2002 йил 115 бет. Т.С. Маликов. П.Т. Жалилов Бюджет-солиқ сиёсати Тошкент: Академнашр 2011 йил 472 бет. Т. Маликов. Молиявий менежмент. Тошкент. Академия 1999 йил 193 бет, О.Олимжонов. Ўзбекистон худудлари мустақиллик йилларида, “Шарк” нашриёти-матбаа концернининг бош тахририяти Тошкент 1996 йил 201 бет, Н.Ҳайдаров. Молия. Тошкент: Академия. 2001 йил 72 бет. Ш.З.Абдуллаева. Пул кредит ва банклар. – Тошкент: Молия. 2000 йил 312 бет. Х.А.Қобулов Худудий иқтисодиёт ва маҳаллий бюджетлар имкониятларини ошириш йўналишлари иқтисод фан. номзоди диссертацияси Тошкент 2006 йил 148 бет. А.С. Жўраев Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг долзарб муаммолари дис. иқтисод фан. доктори: Тошкент 2005 йил 321 бет. S.X. Djumayev Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini baholash va boshqarish tizimini takomillashtiiush dis. (Phd)) ilmiy darajasini olish uchun.Toshkent-2024.S.Ya.Ismailova Mahalliy byudjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash masalalari 08.00.07-Moliya, pul muomalasi va kredit Avtoreferat. Toshkent-2021. F.M.Ollokulova Mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo'nalishlari 08.00.07-Moliya, pul muomalasi va kredit Avtoreferat. Toshkent-2022. J.A.Ergashov Mahalliy byudjet daromadlarini prognozlashtirish hamda daromadlarni oshirish masalalari Avtoreferat. Toshkent-2023. N.I.Primova Mahalliy byudjetlarda moliyaviy strategiyani rivojlantirish yo'nalishlari Avtoreferat. Toshkent-2022.

organlari faoliyatini samarali tashkil etish yuzasidan aniq amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

hududlarda budget resurslarini boshqarish mexanizmi samaradorligini oshirish yoʻnalishlarini ilmiy asoslab berish;

hududlarda budget rejalashtirilishi xususiyatlari va tashkiliy moliyaviy asoslarini ishlab chiqish;

mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida hududlarda budget resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obʻyekti sifatida Namangan viloyati mahalliy budjeti olingan.

Tadqiqotning predmeti boʻlib hududlarda budget resurslarini boshqarish bilan bogʻliq boʻlgan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy natija olish uchun taqqoslash, guruhlashtirish, analiz, sintez, iqtisodiy modellashtirish, statistik va bashoratlash kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga koʻra “hududlarda budget resurslarini boshqarish mexanizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni davlat moliyasi boshqaruvida hududiy darajada budget mablagʻlarini samarali taqsimlash, boshqarish va sarflashni taʼminlovchi tizimga hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklarini hisobga olgan holda budget rejalashtirish, daromadlarni yigʻish, xarajatlarni moliyalashtirish va nazorat qilish jarayonlari orqali hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror rivojlanishga erishish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

hududlar budgetni boshqarish jarayonida muayyan tartib-qoidalarni amalga oshirish sifatini tavsiflovchi oraliq umumiy koʻrsatkichlarni hisoblashda ijtimoiy soha ($16 \leq FI_{inf}^1 \leq 48$), aholi daromadlari ($3 \leq FI_{slp}^1 \leq 9$), aholining savodxonlik darajasi ($6 \leq FI_{slp}^1 \leq 18$), aholi sonining oʻsishi ($1 \leq FI_{Pop}^{overal} \leq 10$) koʻrsatkichlari boʻyicha ballar belgilash orqali ekspert baholarining aniqligini taʼminlash asoslangan;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad soligʻi asosiy qismining rasman turli darajalardagi mahalliy budjetlarning daromad bazasiga biriktirib qoʻyish orqali mahalliy budjetlar daromadlarini barqarorlashtirish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan aholi bandligi tadbirlarining samaradorligi ragʻbatlantirish taklifi asoslangan;

Namangan viloyatida raqamli iqtisodiyot rivojlanishining daromadlarga taʼsirini ifodalovchi ekonometrik model asosida hudud budjetining 2030-yilgacha prognoz koʻrsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi sharoitida hududlarda budget resurslarini boshqarishdagi dolzarb masalalarning iqtisodiy mohiyati ochib berilgan;

hududlarda budget resurslarini boshqarishda oʻziga xos boʻlgan tendensiyalar aniqlangan;

hududlarda budget intizomini mustahkamlash maqsadida budget resurslaridan

oqilona foydalanish yo'llari, ulardagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

hududlarda budjet resurslari barqarorligini ta'minlash imkonini beruvchi asosiy omillar aniqlangan va ilmiy asoslangan;

hududlarda budjet resurslarini tartibga solish rolini aniqlash va samaradorligini oshirish uslubiyoti ishlab chiqilgan;

hududlarda budjet resurslarni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining asosliligi va ishonchliligi ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilishi hamda ilmiy ishlanmalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligida o'z ifodasini topgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy qoidalar va xulosalardan mamlakatimiz hududlarida budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning uslubiy asoslarini yanada kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan amaliy tavsifdagi xulosalar va tavsiyalardan hududlarda budjet resurslaridan oqilona foydalanish, budjet intizomini mustahkamlash, hududlarda budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash yo'nalishidagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda, shuningdek, davlat ta'lim standartlariga muvofiq "Moliya", "Davlat budjeti", "Soliq nazariyasi", "Soliq munosabatlarini optimallashtirish" kabi fanlarning o'quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hudud budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "hududlarda budjet resurslarini boshqarish mexanizmi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini davlat moliyasi boshqaruvida hududiy darajada budjet mablag'larini samarali taqsimlash, boshqarish va sarflashni ta'minlovchi tizimga hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ustuvorliklarini hisobga olgan holda budjet rejalashtirish, daromadlarni yig'ish, xarajatlarni moliyalashtirish va nazorat qilish jarayonlari orqali hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va barqaror rivojlanishga erishish nuqtai nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Global iqtisodiy xavfsizlik" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda mahalliy budjet o'z ichiga olgan yangi mazmundagi "Hudud budjeti" tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

hududlar budjetni boshqarish jarayonida muayyan tartib-qoidalarni amalga oshirish sifatini tavsiflovchi oraliq umumiy ko'rsatkichlarni hisoblashda ijtimoiy soha ($16 \leq FI_{inf}^1 \leq 48$), aholi daromadlari ($3 \leq FI_{slp}^1 \leq 9$), aholining savodxonlik

darajasi ($6 \leq FI_{slp}^1 \leq 18$), aholi sonining o'sishi ($1 \leq FI_{Pop}^{overal} \leq 10$) ko'rsatkichlari bo'yicha ballar belgilash orqali ekspert baholarining aniqligini ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 15-apreldagi 05-13/1506-sonli ma'lumotnomasi), (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-apreldagi 06/57-1-9235-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatida daromadlar ortishiga imkon yaratilgan;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i asosiy qismining rasman turli darajalardagi mahalliy budjetlarning daromad bazasiga biriktirib qo'yish orqali mahalliy budjetlar daromadlarini barqarorlashtirish hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladigan aholi bandligi tadbirlarining samaradorligi rag'batlantirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 15-apreldagi 05-13/1506-sonli ma'lumotnomasi), (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-apreldagi 06/57-1-9235-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyatida xarajatlar optimallashtirilib, viloyat budjet xarajatlari kamaytirishga erishilgan;

Namangan viloyatida raqamli iqtisodiyot rivojlanishining daromadlarga ta'sirini ifodalovchi ekonometrik model asosida hudud budjetining 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2025-yil 15-apreldagi 05-13/1506-sonli ma'lumotnomasi), (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-apreldagi 06/57-1-9235-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyati daromadi hududda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi inobatga olgan holda hudud budjetining uzoq muddatli davrdagi rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda asosiy ko'rsatkich va parametrlarni o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy g'oya va xulosalari 1 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 6 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya asosiy matnining hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti belgilangan, tadqiqot mavzusining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Hududlar budget resurslari va ularni boshqarishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida hududlar budjeti mazmuni, shakllanishi va tarkibi tadqiq etilgan, budget resurslarini boshqarish va uning vazifalari keltirilgan, hududlarda budget resurslarini boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari o'rganib xulosalar shakllantirilgan.

Demak, budget resurslari – bu muayyan davr mobaynida budget daromadlari sifatida aniq manbalardan pul shaklida kelib tushadigan va budgetdan xarajatlarni moliyalash uchun safarbar qilinadigan resurslardir (1-rasm).



1-rasm. Budget resurslarini shakllanish tarkibi.⁵


⁵ Mazkur rasm muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Rasmda aks etgan budget resurslarining har biri mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darajasiga bog'liq holda, uning natijasi sifatida vujudga keladi va shunga bog'liq holda budget daromadlariga aylanadi. Har bir resurning davlat budjeti jami daromadidagi salmog'i ham shu jarayonda qaror topadi.

Davlat budjeti resurslarni shakllanishida eng salmoqli o'rinni soliqlar egalamoqda 2025-yil uchun davlat budjeti daromadlari 308,5 trln.so'm yoki YaIMning 19,0 foizi miqdorida prognoz qilinmoqda. Shundan 242 trln.so'mi soliqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Boshqa manbalar ulushi esa 64,9 trln so'mdan iborat.

Mahalliy budjetga qarz mablag'larini jalb qilishda quyidagi muammolar oqilona hal etilishi lozim: jalb etilayotgan mablag'lar qiymatini minimallashtirish, qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlarini pasaytirish, jalb etilayotgan mablag'lardan eng samarali foydalanishni ta'minlash, budget barqarorligini ta'minlash choralari ko'rish.

Muallifning ta'rifiga ko'ra, "hudud budjeti" - bu hududdagi mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari doirasida ularning ixtiyorida jamlanadigan va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida dolzarb masalalarini hal etishga yo'naltiriladigan mablag'larni shakllantirilishi va ishlatilishini aks etiruvchi moliyaviy rejadir.



2-rasm. Hududlarda mahalliy budjet resurslarini shakllantirish tamoyillari⁶

Qayd etish lozimki, budget resurslari tarkibida o'z resurslari jalb etilgan resurslarga nisbatan qator afzalliklarga ega: qo'lga kiritilishi, hududning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etmasligi. Ayni paytda mazkur resurs hajmi amaldagi soliq qonunchiligi va umuman olganda, hududning iqtisodiy salohiyati bilan cheklangan bo'ladi.

Mazkur holga qarama-qarshi ravishda, jalb etiladigan yoki qarz mablag'larini qo'lga kiritish jarayoni murakkabroq, hududning kelajakdagi moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin, qiymati moliya bozori kon'yunkturasiga qattiq bog'lanib

⁶ Mazkur rasm muallif tomonidan ishlab chiqildi.

qolgan. Shunday bo'lsada, qarz mablag'lardan foydalanish hududning moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi va kapital xarajatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Nazariy jihatdan olib qaralganda, eng maqbul variant bu hudud budjeti orqali iqtisodiy va ijtimoiy muammolar hal etilishi yuqori organlarning nooqilona ma'muriy aralashuvisiz va asosan hududda yaratilgan moliyaviy mablag'lar hisobidan va qo'shimcha ravishda hududning o'z mustaqil ravishda jalb etadigan mablag'lar hisobidan amalga oshirishdir. Biroq, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida jiddiy xarakterdagi tengsizliklar mavjud bo'lgan va budjet resurslari yetishmovchiligi sharoitlarida bunday yo'l qo'llanishi mavjud muammolarning yanada keskinlashuviga olib kelishi mumkin.

Budjetning yaxlitligi tufayli respublika o'z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan fondini oladi, uni budjet tizimining faqat biror-bir bo'g'iniga taqdim etish mumkin emas balki hamda O'zbekiston Respublikasi davlat budjetiga birlashtiriladigan barcha budjetlarning majmui sifatida ifodalanadi. Respublika budjet tizimining yaxlitligi va bir butunligi qonun tomonidan mustahkamlab qo'yilgan, unda quyi budjetlarning biri yuqori bo'g'inga kirishi ko'zda tutilgan.

“Budjet kodeksi”ga binoan O'zbekiston Respublikasi budjet tizimining yetakchi bo'g'in respublika budjeti hisoblanadi. U davlat budjetining umumdavlat miqyosidagi tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan manbalar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni respublika budjeti orqali tartibga solinadi.

Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat budjetida muhim tarkibiy qismini tashkil etadi (2-rasm) va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib, hisoblanadi.

Muallifning fikricha, hudud budjet resurslari barqarorligi va muntazam mustahkamlanib borishini ta'minlash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

mahalliy budjet daromadlar qismining barqarorligi eng avvalo iqtisodiy salohiyatning samarali rivojlanishi asosida ta'minlanishi lozim;

mahalliy budjetlar daromadlar manbalari va unga ajratmalar stavkalari mahalliy budjet bajaradigan funksiyalar tarkibi va hajmiga monand ravishda qat'iy belgilanishi;

hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi maqsadlariga korxonalar va tashkilotlar, hududdagi davlat korxonalarining, aholining va chet el investorlarining mablag'larini oqilona jalb eta olish va ularning muvofiqlashtirilgan va balanslashgan holda ishlatilishiga erishish.

Dissertatsiyaning «**Namangan viloyatida hududiy budjet resurslarini boshqarishning zamonaviy holati tahlili**» deb nomlangan ikkinchi bobida budjet resurslarini boshqarishni baholovchi mezon va ko'rsatkichlari keltirilgan, Namangan viloyatida budjet salohiyatining retrospektiv tahlili amalga oshirilgan, hudud budjet resurslarini boshqarishga ta'sir etuvchi omillar ekonometrik tahlil asosida aniqlangan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududlar budjetlari daromadlari 2017-2023-yillarda

Namangan shahar budjetida daromadlar salkam 2 marta Mingbuloq tumanida 2,6 marta, To'raqo'rgon tumanida 2,2 marta, Chortoq tumanida 2,8 marta, Chust tumanida 3,5 marta ortgan. Bu jarayon birinchi navbatda maskur hududlarga sanoat kirib kelishi, kichik sanoat zonalari tashkil etilishi tufayli yuz bermoqda. Jumladan, Chust tumanining inovasion rivojlanish hududi sifatida tanlab olinishi tuman budjeti daromadlari manbalarini jiddiy ravishda kengaytirmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Namangan viloyati mahalliy budjet daromadlari ham yil sayin mustahkamlanib bormoqda.

2017-2023-yillarda mahalliy budjet jami daromadlari 1023,3 mlrd so'mdan 2864,0 mlrd so'mga ortgan. O'tgan yilga taqqoslaganda o'sish sur'ati 2018-yilda 13,1 foizni, 2023-yilda esa 30,1 foizni tashkil etgan. Resurs to'lovlari va mulk solig'idan daromadlarning ayniqsa tez o'sishi kuzatilmogda.

Quyidagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yuqori budjetlardan quyi budjetlarga katta miqdorda moliyaviy mablag'lar ajratilmogda. 2023-yilda viloyat miqyosida qariyb 1284 mlrd so'mni tashkil etdi. Eng katta transfert summalari Namangan shahriga (128 mlrd so'm), Kosonsoy tumaniga (106 mlrd so'm), To'raqo'rg'on tumaniga (114 mlrd so'm). Bu mazkur hududlardagi aholi soniga bog'liq ravishda ijtimoiy xarajatlarni qoplash zarurligidan kelib chiqmogda.

1-jadval

Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga 2021-2023-yillarda ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar⁷

(mln.so'm)

Tuman (shahar) nomi	2021-yil		2022-yil		2023-yil	
	Budjetda		Budjetda		Budjetda	
	Transfert miqdori	Transferring xarajatdagi ulushi	Transfert miqdori	Transferring xarajatdagi ulushi	Transfert miqdori	Transferring xarajatdagi ulushi
Viloyat budjeti	108 704,2	8,3%	82 808,9	4,6%	542 950	19.1%
Namangan shahar	128 380,5	34,4%	158 650,3	30,7%	313 003	37.6%
Mingbuloq tumani	63 875,8	65,1%	94 873,3	62,7%	137 666	70.6%
Kosonsoy tumani	106 052,3	71,2%	143 013,9	68,7%	203 412	75.4%
Namangan tumani	81 268,4	67,2%	112 776,0	64,8%	168 707	72.4%
Pop tumani	83 185,2	55,9%	125 429,5	53,6%	180 525	59.2%
To'raqo'rg'on tumani	114 735,8	68,8%	156 592,3	66,3%	211 929	69.6%
Uychi tumani	97 079,0	62,7%	130 873,4	60,2%	185 720	66.2%
Chortoq tumani	101 744,1	70,8%	137 878,1	68,6%	176 435	70.9%
Yangiqo'rg'on tumani	101 302,7	68,7%	142 129,6	66,2%	192 914	70.9%
Norin tumani	92 491,4	71,6%	127 785,6	69,4%	174 865	75.5%
Uchqo'rg'on tumani	101 798,2	67,2%	135 304,2	65,1%	194 111	71.9%
Chust tumani	103 359,5	63,0%	156 641,6	60,5%	217 628	65.7%
JAMI	1 283 977,0	39,5%	1 704 756,6	37,0%	2 899 866	43.8%

⁷ Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi va <http://data.namangan.uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mahalliy budjetdan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlilini amalga oshirish uchun Panel Data jadvalda keltirilgan ma'lumotlar va qiymatlarni STATA14 dasturida ishlash uchun Panel modeli ishlab chiqildi.

POLS modeli: $y_{it} = \beta_0 + \beta_1 x_{1it} + \beta_2 x_{2it} + u_{it}$
FDE modeli: $\Delta y_{it} = \beta_0 + \beta_1 \Delta x_{1it} + \beta_2 \Delta x_{2it} + \Delta u_{it}$
FEE modeli: $y_{it} - \bar{y}_i = \beta_1 (x_{1it} - \bar{x}_{1i}) + \beta_2 (x_{2it} - \bar{x}_{2i}) + (u_{it} - \bar{u}_i)$
REE modeli: $y_{it} - \bar{\theta} y_i$
 $= \beta_0 + \beta_1 (x_{1it} - \bar{\theta} x_{1i}) + \beta_2 (x_{2it} - \bar{\theta} x_{2i}) + (a_i - \bar{\theta} a_i) + (u_{it} - \bar{u}_i)$

Tadqiqot bo'yicha natijaviy belgi va omil belgilar quyidagi ko'rinishga ega.

2-jadval

Mahalliy budjetdan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar⁸

Hududlar kesimida faoliyati yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda	Bandlik darajasi, foizda	Daromad mahalliy	Asosiy iqtisodiy faoliyat turi "Axborot va aloqa bo'lgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi	Subvensiya
Omil belgi	Omil belgi	Omil belgi	Omil belgi	Natijaviy belgi
x ₁	x ₂	y ₂	x ₃	y

Tadqiqot bo'yicha OLS, FDE va FEE modellar asosida ekonometrik tenglamani ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (www.stat.uz)ning iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Tadqiqot bo'yicha OLS, FDE va FEE modellarni ishlab chiqishda quyidagi ketma-ketlikda tenglamani qurdik.

1. OLS, FDE va FEE modellari bo'yicha panel qatorlar grafik matrisasi ishlab chiqildi.

2. Natijaviy belgi va omil belgilar bog'lanishlarning korrelyasion matrisasiga aniqlik kiritilib belgilab olindi.

3. Natijaviy belgilar va omil belgilar bo'yicha Dickey-Fuller test ko'rsatkichi tekshirildi.

4. OLS, FDE va FEE modellari regression tenglamasi shakllantirildi.

5. Ishlab chiqilgan ARDL modeli regression tenglamasini Gaus Markovning muhim shartlari bilan tekshirildi.

6. Tadqiqot bo'yicha o'rganilgan vaqt davomida natijaviy belgi va omil belgilar tahlil qilindi. Omillarni barchasi logariflab olindi.

3-jadvaldagi haqiqiy qiymati F=48.73 yuqori ijobiy qiymatni tashkil etgan hamda prob>F 0,05 dan kichik bo'lib, model sifati ijobiy ekanligini ko'rsatadi.

⁸ Mazkur jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.

$$\text{Ln}Y_2 = \text{Ln}0,43x_1 + \text{Ln}1,28x_2 + \text{Ln}0,41x_3 + 1,49$$

3-jadval

Mahalliy budjetdan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning (y₂, x₁, x₂, x₃) Fixed effects estimator (FEE) modeli⁹

```

Fixed-effects (within) regression          Number of obs   =          90
Group variable: i                         Number of groups =          15

R-sq:                                     Obs per group:
    within = 0.6700                       min =           6
    between = 0.7876                      avg =          6.0
    overall = 0.7580                      max =           6

                                         F(3, 72)       =         48.73
corr(u_i, Xb) = 0.4668                   Prob > F       =         0.0000

```

	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
x1	.4307015	.1627433	2.65	0.010	.1062785	.7551244
x2	1.282423	.7851424	1.63	0.107	-.2827302	2.847575
x3	.4108453	.1240133	3.31	0.001	.1636292	.6580614
_cons	1.495108	3.803437	0.39	0.695	-6.086905	9.077121
sigma_u	.44310278					
sigma_e	.19283542					
rho	.84076476	(fraction of variance due to u_i)				

F test that all u_i=0: F(14, 72) = 6.87 Prob > F = 0.0000

Namangan viloyatida faoliyati yuritayotgan korxonalar sonining 1 foizga oshishi viloyat daromadini (budjetini) 0,43 foizga oshishiga, viloyatda bandlik darajasini 1 foizga oshishi viloyat daromadini (budjetini) 1,28 foizga oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, asosiy iqtisodiy faoliyat turi "Axborot va aloqa bo'lgan yuridik shaxslarda ishlovchi xodimlarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqining 1 foizga oshishi viloyat daromadini (budjetini) 0,41 foizga oshishiga xizmat qilarkan. Ya'ni, iqtisodiyotni raqamlashtirish mahalliy budjet daromadiga ijobiy ta'sir qildi. Ya'ni, iqtisodiyotni raqamlashtirish mahalliy budjet daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu sabab Namangan viloyatida hudud budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirish yo'nalishi sifatida hududda iqtisodiyotni raqamlashtirishni davom ettirish tavsiya etiladi.

Dissertatsiyaning «**Hududlar budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlari**» deb nomlangan uchinchi bobida hududlar budjetlarining daromadlar bazasini mustahkamlash yo'nalishida budjet resurslarini boshqarishni takomillashtirishning zamonaviy yo'llari taklif etilgan, mahalliy budjetdan foydalanishni boshqarish sifatini baholash uslubi takomillashtirilgan, raqamli iqtisodiyot joriy etilishi bilan hududlar budjet resurslarini samarali boshqarish istiqbollari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijasida hududlar budjetni boshqarish jarayonida muayyan tartib-qoidalarni amalga oshirish sifatini tavsiflovchi oraliq umumiy ko'rsatkichlarni hisoblash usuli takomillashtirishga urinilgan.

⁹ Muallif Stata 14 dasturidagi hisob-kitoblari

Bizning fikrimizcha, uchta asosiy yoʻnalish boʻyicha hisobot davrida mamlakatning maʼlum bir subʼyektining mahalliy budjetini boshqarish sifatining umumiy tavsifini berishga imkon beradigan beshta oraliq umumiy koʻrsatkichni baholash maqsadga muvofiqdir.

Namangan viloyati mahalliy budjetlari xarajatlarida ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yoʻnaltirilgan xarajatlarning ulushi tahlil qilinganda, ijtimoiy sohaga yoʻnaltirilgan mablagʻ oʻrtanilgan davrda dinamikaga ega ekanligi, ayrim sohalarga moliyalashtirish kamayib, ayrimlariga esa oshganligi aniqlandi. Masalan ijtimoiy taʼminot xarajatlari ulushi soʻnggi yillarda juda kamayib ketgan.

4-jadval

Namangan viloyati mahalliy budjetlari xarajatlarida ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yoʻnaltirilgan xarajatlarning ulushi¹⁰, (foizda)

Koʻrsatkichlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2019 yilga nisbatan oʻsish/pasayish
Xalq taʼlimi xarajatlari	8,386	19,334	27,628	29,197	31,241	+22,855
Madaniyat va ommaviy axborot vositalariga xarajatlar	11,436	14,392	5,280	1,495	1,84	-9,596
Sogʻliqni saqlash xarajatlari	42,235	61,510	62,727	63,948	66,451	+24,216
Sport tadbirlari xarajatlari	23,060	2,854	3,737	4,395	4,419	-18,641
Ijtimoiy taʼminot xarajatlari	14,883	1,911	0,628	0,964	0,873	-14,01

Mahalliy budjetlardan unumli foydalanishni boshqarish sifatini baholashda biz (yillik) maxalliy budjet parametrlarini dinamikasi, ijtimoiy sohani rivojlanishi hamda aholi daromadlarini oʻsish koʻrsatkichlarini tanlab oldik.

5-jadval

Namangan viloyati mahalliy budjetlarining 2017-2023 yilgi asosiy parametrlarining oʻsish surʼatlari¹¹, (foizda)

Hududlar / yillar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Viloyat budjeti	1,000	1,181	1,673	0,967	0,940	1,379	1,11
Namangan shahri	1,000	1,251	1,516	0,676	1,298	1,386	1,09
Mingbuloq tumani	1,000	1,176	1,625	0,637	1,166	1,544	1,41
Koson tumani	1,000	1,211	1,569	0,714	1,237	1,398	1,24
Namangan tumani	1,000	1,179	1,574	0,735	1,215	1,440	1,11
Pop tumani	1,000	1,202	1,569	0,676	1,147	1,572	1,06
Toʻraqoʻrgʻon tumani	1,000	1,220	1,541	0,734	1,246	1,416	1,13
Uychi tumani	1,000	1,200	1,562	0,720	1,233	1,404	1,22
Chortoq tumani	1,000	1,237	1,555	0,745	1,217	1,400	1,30
Yangiqoʻrgʻon tumani	1,000	1,228	1,521	0,697	1,187	1,456	1,09
Norin tumani	1,000	1,194	1,574	0,734	1,205	1,425	1,01
Uchqoʻrgʻon tumani	1,000	1,213	1,545	0,779	1,160	1,372	1,1
Chust tumani	1,000	1,224	1,598	0,652	1,148	1,577	1,17

Namangan viloyati mahalliy budjetlarining 2017-2023 yilgi asosiy parametrlarining oʻsish surʼatlari tahlil qilinganda faqatgina 2020-yilda Namangan viloyatida pasayganligi aniqlanib (buni Covid-19 pandemiyasi oqibati bilan

¹⁰ Mazkur jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.

¹¹ Mazkur jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.

izohlash mumkin), 2018,2019, 2021,2022 va 2023 yillarda bazis 2017-yilga nisbatan o‘shish tendensiyasi kuzatilgan.

6-jadval

**Mahalliy budjetlardan unumli foydalanishni boshqarish sifatini baholash
uslubii indikatorlari¹²**

Shartli belgilanish	Indikatorlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023 yilda 2022 yilga nisbati
FI_{inf}^1	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni – jami, birlik	7753	7868	8412	1,08
FI_{inf}^2	shahar joylarida	4151	4129	4430	1,07
FI_{inf}^3	qishloq joylarida	3602	3739	3982	1,11
FI_{inf}^4	1-3 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan qamrab olinishi (yil oxiriga, foizda)	27,3	29,4	31,3	1,15
FI_{inf}^5	3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi (yil oxiriga, foizda)	50,9	62,0	68,3	1,34
FI_{inf}^6	Umumta'lim muassasalari soni, birlik	10181	10289	10522	1,03
FI_{inf}^7	boshlang'ich	47	56	72	1,53
FI_{inf}^8	umumiy o'rta	10045	10144	10359	1,03
FI_{inf}^9	jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar	89	89	91	1,02
FI_{inf}^{10}	O'quvchilar soni, ming kishi	6283,2	6304,6	6461,7	1,03
FI_{inf}^{11}	boshlang'ich	6,5	7,6	1,1	0,17
FI_{inf}^{12}	umumiy o'rta	6255,0	6272,3	6426,8	1,03
FI_{inf}^{13}	jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar	21,7	21,8	21,8	1,00
FI_{inf}^{14}	Shahar joylardagi umumta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik)	3893	3921	3951	1,01
FI_{inf}^{15}	Qishloq joylardagi umumta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik)	6277	6368	6571	1,05
FI_{inf}^{16}	Chakana savdo aylanmasi (hududlar bo'yicha) (amaldagi narxlarda; mlrd.so'm)	168 649,0	216 694,6	270 687,2	1,61
FI_{stp}^1	Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi (hududlar kesimida) (amaldagi narxlarda; ming so'm)	4 926,6	6 206,3	7 593,3	1,54
FI_{stp}^2	Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari savdo aylanmasi (amaldagi narxlarda; mlrd.so'm)	33 562,2	34 222,6	63 074,5	1,88
FI_{stp}^3	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar, ming so'm	10734,3	13416,8	15948,3	1,49
FI_{ltp}^1	Katta yoshdagi aholining savodxonlik darajasi, (15 yosh va undan katta yoshlilarga nisbatan %)	99,99	99,99	99,99	1,00
FI_{ltp}^2	Katta yoshli erkaklarning savodxonlik darajasi (15 yosh va undan katta erkaklarning %)	100,00	100,00	100,00	1,00
FI_{ltp}^3	Voyaga etganlarning savodxonlik darajasi (15 va undan katta yoshdagi ayollarning %)	99,99	99,99	99,99	1,00
FI_{ltp}^4	Yoshlarning savodxonlik darajasi (15–24 yoshdagi ayollarning %)	100,0	100,0	100,0	1,00
FI_{ltp}^5	Yoshlar o'rtasida savodxonlik darajasi (15-24 yoshdagi erkaklarning %)	100,0	100,0	100,0	1,00
FI_{ltp}^6	Savodxonlik darajasi, jami yoshlar (15-24 yoshdagi yoshlarning %)	100,0	100,0	100,0	1,00
FI_{Pop}^{overal}	Doimiy aholi soni-Jami (yil boshiga; ming kishi)	33905,2	34558,9	35271,3	1,04

¹² Mazkur jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Metodologiyani amalga oshirishning dastlabki bosqichida qisman ko'rsatkichlarni oddiy o'rtacha hisoblashdan foydalanish tavsiya etiladi. Bu, bir tomondan, bog'liqlik koeffitsiyentlarining qiymatini faqat metodologiyani amaliyotida qo'llash jarayonida ob'yektiv ravishda shakllantirish mumkinligi bilan asoslanadi. Bu hududlar moliyaviy tizim samaradorligini sifatini oshirishni ta'minlashning yuqori ahamiyatini chuqur anglash asosida, hududlar budjetni bir butun yaxlit holatida boshqarishda hokimiyat organlari, har bir alohida soha ma'lumotlariga tayanadi.

Mazkur yondashuv taklif etilayotgan metodologiyani amaliy qo'llash jarayonida yuqori darajada aniqlik va amalga oshirish qulayligini ta'minlaydi. Reytingni shakllantirishning taklif etilayotgan metodologiyasiga muvofiq, 2, 4 va 6-ustunlardagi ko'rsatkichlarning har biri uchun xususiy va jami ko'rsatkichlarni shakllantirishga asosiy yondashuvga muvofiq eng yuqori qiymat aniqlanadi.

Ko'rsatilgan ustunlarning har biri uchun shu tarzda olingan eng yuqori qiymat standart sifatida qabul qilinadi. A1 ko'rsatkichining mos yozuvlar qiymatiga ega bo'lgan mintaqa uchun 3-ustunda 1 ga teng qiymat kiritiladi. A2 ko'rsatkichi uchun mos yozuvlar qiymatiga ega bo'lgan mintaqa uchun 5-ustunda 1 ga teng qiymat kiritiladi. A3 ko'rsatkichi uchun mos yozuvlar qiymatiga ega, 7-ustunda 1 ga teng qiymat kiritiladi 3-ustunda qolgan ko'rsatkichlar ma'lum hudud uchun A2 ko'rsatkichining qiymatini ushbu ko'rsatkichning mos yozuvlar qiymatiga bo'lish yo'li bilan tuziladi. 5 va 7-ustunlardagi qolgan ko'rsatkich qiymatlari, mos yozuvlardan tashqari, xuddi shunday tartibda shakllantiriladi.

7-jadval

Hududlar budjetni boshqarish jarayonida muayyan tartib-qoidalarni amalga oshirish sifatini tavsiflovchi oraliq umumiy ko'rsatkichlarni hisoblashning ekspert usuli¹³

Guruhlar	Indikatorlar	Beriladigan ball
A ₁	Ijtimoiy sohani ayrim ko'rsatkichlarining dinamikasi FI_{inf}^1 FI_{inf}^{16}	Har bir indikatorga 1 ball dan 3 ballgacha, Oraliq interval 16 dan 48 gacha
A ₂	Hududlardagi aholi daromadlari ko'rsatkichlarining dinamikasi FI_{slp}^1 FI_{slp}^2 FI_{slp}^3	Har bir indikatorga 1 ball dan 3 ballgacha, Oraliq interval 3 dan 9 gacha
A ₃	Hududlardagi aholini savodxonlik darajasi FI_{slp}^1 FI_{slp}^6	Har bir indikatorga 1 ball dan 3 ballgacha, Oraliq interval 6 dan 18 gacha
A ₄	Hududlardagi aholi sonining o'sishi FI_{Pop}^{overal}	Har bir indikatorga 1 ball dan 10 ballgacha, Oraliq interval 1 dan 10 gacha

¹³ Mazkur jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Yuqoridagi 7-jadvaldagi ko'rsatkichlarning qiymatlarini mos yozuvlardan tashqari kasrgacha. Natijada, 3-jadvalning 3, 5 va 7-ustunlarida keltirilgan ko'rsatkichlar viloyat budjetini boshqarishning kengaytirilgan yo'nalishlari bo'yicha har bir hudud uchun tegishli baholash ko'rsatkichlarining nisbatini tavsiflovchi standartlashtirilgan koeffitsiyentlar to'plamidir. Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, keyingi reyting baholash jarayonida hududning ma'lum bir davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor xususiyatlariga bog'liq bo'lgan alohida muhim omillarning reytingini tuzishning yakuniy natijasiga ta'sir qiladi.

Hududlar budjetni boshqarish sifatiga asoslangan hudud reytingini yanada shakllantirish maqsadida 3-jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi.

Hududlarda budjetni boshqarish sifati bo'yicha hududlarni reyting baholashning yakuniy jadvalida hudud budjetini boshqarishning bajarilishini baholash uchun oraliq umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymatlarini tizimlashtiramiz (8-jadval).

8-jadval

Hududlar budjetni boshqarish sifati bo'yicha hududlarni oraliq reytingini baholash¹⁴

Shaxar va tumanlar	A ₁ ko'rsatkichi bo'yicha shaxar va tumanlar ko'rsatkichlarini ekspert baholash					
	1-ekspert	2-ekspert	3-ekspert	4-ekspert	5-ekspert	o'rta arifmetik $\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i = \frac{1}{n}(x_1 + \dots + x_n).$
Xudud 1	A ₁	A ₁	A ₁	A ₁	A ₁	\bar{A}_1
Xudud 2	A ₁	A ₁	A ₁	A ₁	A ₁	\bar{A}_1
.....
.....
Xudud n	A ₁	A ₁	A ₁	A ₁	A ₁	\bar{A}_1
Shaxar va tumanlar	A ₂ ko'rsatkichi bo'yicha shaxar va tumanlar ko'rsatkichlarini ekspert baholash					
	1-ekspert	2-ekspert	3-ekspert	4-ekspert	5-ekspert	o'rta arifmetik $\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i = \frac{1}{n}(x_1 + \dots + x_n).$
Xudud 1	A ₂	A ₂	A ₂	A ₂	A ₂	\bar{A}_2
Xudud 2	A ₂	A ₂	A ₂	A ₂	A ₂	\bar{A}_2
.....
.....
Xudud n	A ₂	A ₂	A ₂	A ₂	A ₂	\bar{A}_2
Shaxar va tumanlar	A ₃ ko'rsatkichi bo'yicha shaxar va tumanlar ko'rsatkichlarini ekspert baholash					
	1-ekspert	2-ekspert	3-ekspert	4-ekspert	5-ekspert	o'rta arifmetik $\bar{x} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i = \frac{1}{n}(x_1 + \dots + x_n).$
Xudud 1	A ₃	A ₃	A ₃	A ₃	A ₃	\bar{A}_3
Xudud 2	A ₃	A ₃	A ₃	A ₃	A ₃	\bar{A}_3
.....
.....
Xudud n	A ₃	A ₃	A ₃	A ₃	A ₃	\bar{A}_3

¹⁴ Mazkur jadval muallif tomonidan ishlab chiqildi.


Olingan natijalar nafaqat budjetni boshqarish sifati bo'yicha eng ko'p va kam rivojlangan hududlarni aniqlash imkonini beradi. Ular bizga ma'lum bir hudud qaysi aniq sabablarga ko'ra eng yaxshisi va qaysi biri bu sohada ortda qolmoqda degan savolga javob berishga imkon beradi.

Baholash natijalari ob'yektiv asosda budjetni boshqarishning ilg'or tajribasiga ega hududlarni aniqlash, moliyaviy yordamga muhtoj bo'lgan hududlarga e'tibor qaratish, moliyaviy boshqaruvning hududiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonida muhim xulosalar chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Reytingni baholash natijalaridan hududiy hokimiyat organlari faoliyatining boshqa sohalardagi samaradorligini baholashda ham foydalanish mumkin.

Hozirgi vaqtda yangi raqamli texnologiyalar va tizimlar budjet jarayoniga faol kiritilib, mavjudlari takomillashtirilmogda. Budjet jarayoniga unchalik faol bo'lmagan, ammo shunga qaramay boshqa sohalarda unumli qo'llanilayotgan ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari ham mavjud.

Raqamli platforma deganda axborot va texnologik jihatdan birlashtirilgan uyg'unlashtirilgan, bus butun holatga keltirilgan, murakkab raqamli ma'lumotlar, modellar va vositalar to'plami tushuniladi.



